




ISSN: 3060-4613



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga  
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,  
5-iyun, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lif universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rindosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiiev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiysi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
Xasanboy U. Abdusamatov	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili .....	26
Jalilov Nodirjon Azamatovich	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
G'ayibova Nargiza Anorbayevna	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari .....	33
Hakimova Gulmira To'xtatoshevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri .....	41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников .....	44
Умрихина Виктория Игоревна	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода .....	52
Ахунова Умида Ойбековна	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni .....	55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich	
Inklyuziv ta'lim sharoitiда imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va matabning roli .....	63
Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход .....	67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
O'yinning bola faoliyatasi sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
Otasheva Lola Shoto'rayevna	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari .....	78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Guishoda Maxmudjonovna	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'larning o'rni .....	81
B. Xusniddinova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish .....	85
Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi .....	89
Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna	
Methodology of Teaching English to Preschool Children .....	96
Khurshida Tojmurodova	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyatি..	100
Ch. B. Nalibayeva	
O'qituvchilarning o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlari .....	103
G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni .....	106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna	



Raqamlı ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o’quvchilari uchun axborot bilan ishslashni o’rgatishning didaktik asoslari .....	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o‘g‘li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners’ Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchechkha Ibrakhimovna	
O’smirlar o’rtasida o’zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar .....	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Kolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o’qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari .....	123
Jo’rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish .....	126
Muxlisa Satriddinovna Muhiddinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi .....	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li	
Bo’lajak o’qituvchilarni ruhlantirish va o’ziga bo’lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari.....	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiylar kamchiliklarni kamaytirishda o’yinlarning o’rni.....	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishslash bosqichlari va ularning ingliz tilini o’rgatishdagi didaktik ahamiyati .....	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta’lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruving qiyosiy tahlillari .....	150
Uzaqov Nomozali Hamdamovich	
Zamonaviy ta’lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo’llari .....	153
Z. M. Zarifova	

# INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING MOSLASHUVIDA OILA VA MAKTABNING ROLI

Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inklyuziv ta'lism sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy va ta'limiylar muhitga moslashuvi jarayoni yoritilgan. Unda oila va maktabning moslashuviga ko'sratadigan psixologik, pedagogik va ijtimoiy ta'siri, ular o'rta sidagi hamkorlik shakkllari hamda bu hamkorlikning samarali natijalari tahlil qilingan. Maqola inklyuziv muhitda ishlovchi pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, adaptiv jismoniy tarbiya, imkoniyati cheklanganlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy integratsiya, psixologik to'siq.

**Abstract:** This article highlights the process of adaptation of children with disabilities to the social and educational environment in inclusive education. It analyzes the psychological, pedagogical, and social influence of the family and school on adaptation, the forms of cooperation between them, and the effective results of this cooperation. The article has practical significance for educators, psychologists, and parents working in an inclusive environment.

**Key words:** inclusive education, adaptive physical education, people with disabilities, psychological support, social integration, psychological barrier.

**Аннотация:** В данной статье освещается процесс адаптации детей с ограниченными возможностями к социальной и образовательной среде в условиях инклюзивного образования. В ней анализируется психологическое, педагогическое и социальное влияние семьи и школы на адаптацию, формы сотрудничества между ними и эффективные результаты этого сотрудничества. Статья имеет практическое значение для педагогов, психологов и родителей, работающих в инклюзивной среде.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, адаптивное физическое воспитание, люди с ограниченными возможностями, психологическая поддержка, социальная интеграция, психологический барьер.

## KIRISH

Bugungi kunda inklyuziv ta'lism tizimi imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga to'liq qo'shilishi, ularning ijtimoiy, emotsiyonal va akademik rivojlanishiga katta e'tibor qaratmoqda. Inklyuziv ta'lism sharoitida bolalarning muvaffaqiyatlari moslashuvi asosan ikki muhim omilga bog'liq: oila va maktabning faol hamkorligi.

Oila – bolaning birinchi va eng asosiy muhitidir. Oila a'zolari bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiradi, uni qo'llab-quvvatlaydi hamda o'ziga xos ehtiyojlarini tushunib, psixologik yordam beradi. Oila tomonidan ko'sratiladigan mehr-muhabbat va sabr, bolaning ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Shuningdek, ota-onalar maktab bilan yaqindan hamkorlik qilishi, o'qituvchilar bilan muntazam muloqotda bo'lishi, bolalarning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini birligida hal qilishda muhimdir. Maktab esa inklyuziv ta'limgining markaziy maskani bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari, metodikalar va resurslar bilan ta'minlaydi. O'qituvchilar bolalarni individual tarzda qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etadi. Bundan tashqari, sinfdoshlari bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash maktabning asosiy vazifalaridan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv muhitga moslashuvi masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. A. Florian va K. Black-Hawkins (2011) o'z ishlarida inklyuziv ta'limgining muvaffaqi-

yati, avvalo, maktab madaniyati va o'qituvchilarning inklyuziv qadriyatlarga sadoqatiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ular ota-onalar bilan hamkorlikning muhimligini alohida qayd etadilar. E. Avramidis va B. Norwich (2002) esa o'qituvchilarning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabati va pedagogik yondashuvlarining bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta'siri haqida muhim ilmiy asoslar keltiradi. Ular moslashuv jarayonini murakkab, ammo o'zaro hamkorlikda samarali bo'ladigan ijtimoiy jarayon deb hisoblaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham oila va matabning uzviy aloqasi dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Jumladan, S. Xasanov (2019) o'z izlanishlarida inklyuziv ta'limga oila bilan maktab o'rtaqidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik bolaning psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatgan. N. Jo'rayevaning (2020) fikricha, imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy moslashuv faqat akademik qo'llab-quvvatlash bilan emas, balki emosional iqlim va ijobjiy munosabatlar orqali ham shakllanadi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga samaradorligi o'qituvchi, oila va ta'limga muassasasi o'rtaqidagi barqaror va hamkorlikka asoslangan munosabatlarga bevosita bog'liqdir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila va maktabning yaqin hamkorligi, ularning birgalikdagi sa'y-harakatlari imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuvi va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu yo'l bilan inklyuziv ta'limga bolalar uchun nafaqat o'quv jarayoni, balki hayotda to'liq ishtiroy etish uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu ishning maqsadi – tadqiqotda inklyuziv sinflarda adaptiv jismoniy tarbiya jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilishdan iborat<sup>[10]</sup>.

Tadqiqotning usullari quyidagilardan iborat: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli; umumlashtirish usuli.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuv jarayonini o'rganish. Inklyuziv ta'limga sharoitida imkoniyati cheklangan bolalar turli jismoniy, psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Tadqiqotning ushbu vazifasi ularning o'quv muhitiga qanday moslashishini, qanday qiyinchiliklarga duch kelishini va bu jarayonda qanday qo'llab-quvvatlash usullari samarali bo'lishini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bolaning moslashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi shaxsiy va tashqi omillar (yosh, oila muhiti, maktab muhiti, jismoniy imkoniyatlar) ham o'rganiladi<sup>[11]</sup>. Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga, o'quv muhitiga va atrofdagi odamlar bilan muloqotga moslashuv jarayoni murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Bu jarayon bolaning nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab oladi.

Moslashuv jarayoni asosan uch bosqichda o'rganiladi:

- Psixologik moslashuv** – bolaning o'z imkoniyatlari cheklanganligini anglab yetishi, o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirishi va ruhiy holatini barqarorlashtirishi. Bu bosqichda bolada o'ziga nisbatan ijobjiy yoki salbiy fikrlar paydo bo'lishi mumkin.
- Ijtimoiy moslashuv** – bolaning jamiyatda, sinfdoshlari va boshqa odamlar bilan munosabatlarini o'rganishi, o'zaro aloqalarni rivojlantirishi, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishi.
- Funktional moslashuv** – kundalik hayotdagi vazifalarni bajarish qobiliyati, o'quv jarayoniga va kundalik faoliyatga moslashishi, maxsus texnologiyalar yoki yordamchi vositalardan foydalanishni o'rganishi<sup>[2]</sup>.

Moslashuv jarayonini o'rganishda ota-onsa va maktab muhim ahamiyatga ega, chunki ular bolaning ehtiyojlarini tushunib, unga qo'llab-quvvatlov ko'rsatishadi. Shu bilan birga, psixologik va pedagogik yordamlar hamda individual rehabilitatsiya dasturlari samarali yechim sifatida qo'llaniladi. Oila va maktabning o'zaro hamkorligini tadqiq etish. Imkoniyati cheklangan bolaning ta'limga jarayonidagi muvaffaqiyati nafaqat matabga, balki oilaning qo'llab-quvvatlash darajasiga ham bevosita bog'liq. Tadqiqot ushbu ikki muhit – oila va maktab – o'rtaqidagi hamkorlikni tahlil qilishni maqsad qiladi. Pedagoglar va ota-onalar o'rtaida samarali muloqot o'rnatish, bolaga qo'shimcha psixologik yordam ko'rsatish va uning ijtimoiy moslashuvini osonlashtirish usullari aniqlanadi.

1-jadval: Inklyuziv ta'limga oila va maktab hamkorligining asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Oilaning vazifalari	Maktabning vazifalari	Hamkorlik natijasi
Psixologik qo'llab-quvvatlash	Bolani ruhiy tayyorlash, ishonchni shakllantirish	Psixologik xizmatlar tashkil etish	Bola o'zini erkin his qiladi
Ma'lumot almashinuvi	Bolaga oid axborotni matabga yetkazish	Ta'limga jarayonidagi natijalarni oila bilan baham ko'rish	Bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olinadi
Motivatsiya	Bolaning yutuqlarini rag'batlantirish	Ta'limga qiziqishini oshirish	Bola o'qishga ijobjiy munosabatda bo'ladi

Ijtimoiylashuv	Tashqi muloqotga tayyorlash	Tengdoshlar bilan integratsiyaga yordam berish	Bola jamoadan ajralmaydi
Pedagogik qo'llab-quvvatlash	Uy sharoitida qo'shimcha mashg'ulotlar	Moslashtirilgan metodlardan foydalanish	Bolaning rivojlanishi izchil kechadi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, oila va maktabning yaqin hamkorligi bolalarning o'z-o'zini anglashini oshiradi, ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Shu sababli, ta'lim muassasalarini va oilalar o'tasida samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni yaratish va amalga oshirish zarur [4].

Bolalarning maktab muhitiga moslashuvi turli omillarga bog'liq. Bu omillar ichida pedagoglarning yondashuvi, sinfdoshlarning munosabati, ta'lim muhitining mosligi, oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasi va jismoniy imkoniyatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu vazifa doirasida inklyuziv ta'limga bolaning moslashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi va ularning qaysi biri eng muhim ekani tahlil qilinadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular individual, oilaviy, maktab va ijtimoiy darajada o'zgaradi. Quyidagi omillar moslashuv sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: bolaning salomatlik holati va imkoniyatlari darajasi, psixologik xususiyatlari (o'ziga bo'lgan ishonch, motivatsiya, stressga chidamlilik), oldingi hayotiy tajriba va o'rganish qobiliyatlar; oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ota-onasi qo'llab-quvvatlashi va mehr-muhabbi, oila a'zolari o'tasidagi muloqot va bolaning ehtiyojlarini tushunish, oila va maktab o'tasidagi hamkorlik darajasi; maktabda maxsus ta'lim metodikalarining mavjudligi va sifati, o'qituvchilarning malakasi va boluning ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvi, inklyuziv muhitning ijtimoiy qabul qilinishi va sinfdoshlarning munosabati; jamiyatdagi inklyuziya siyosati va qonunchilik bazasi, mahalliy hamjamiyat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari, madaniy va diniy stereotiplar, ular orgali bolaning jamiyatda qabul qilinishi. Ushbu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi yoki muvozanatsizligi bolaning moslashuv jarayonini sezilarli darajada o'zgartiradi. Shuning uchun, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun har bir omilni e'tiborga olish zarur [5]. Tadqiqot natijalariga asoslanib, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan ota-onalar va pedagoglar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar bolaning ijtimoiy moslashuvini osonlashtirish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ta'limga jarayonida samarali ishtirok etishini ta'minlashga qaratiladi.

Tavsiyalar psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan o'quv dasturlaridan foydalanish va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi [6]. Har bir bolaning jismoniy va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar o'tasida doimiy aloqa o'rnatish, bola uchun motivatsiyani oshiradigan maqtov va kichik yutuqlarni qadrlash tizimini yaratish muhim hisoblanadi. Pedagoglar maxsus metodikalarni bilishi, adaptiv jismoniy tarbiya usullaridan foydalanishi, bola rivojlanishini muntazam kuzatib borishi, harakatlari o'yinlar orgali uni faollashtirishi va guruh ishlarida muloqotga jalb qilishi lozim. Ota-onalar va o'qituvchilar uchun treninglar va seminarlar tashkil qilish, video qo'llanmalar, elektron darsliklar, mobil ilovalar orgali qo'shimcha ko'nikmalar berish, zarur hollarda psixolog yoki defektolog mutaxassislar maslahatini tashkil etishini tavsiya etiladi.

Moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, individual yondashuvni kuchaytirish imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlariga mos mashg'ulotlar tanlash, yuklamani me'yorda taqsimlash va muvaffaqiyat hissini oshirishga yordam beradi [7]. Shuningdek, o'qituvchilar va sinfdoshlarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashga tayyorlash, ota-onalar va pedagoglar o'tasida muntazam uchrashuvlar, seminarlar va maslahatlar o'tkazish, bolaning holati, rivojlanish sur'ati va ehtiyojlar haqidagi fikr almashish orgali sinergiya hosil qilish muhimdir. Maktab infratuzilmasini imkoniyati cheklangan bolalar ehtiyojlariga moslashtirish (panduslar, keng eshiklar, liftlar, maxsus partalar, Braille yozuvi, audiovizual vositalar) orgali fizik to'siqlarsiz muhit yaratiladi. Yakuniy tavsiya sifatida inklyuziv ta'limga bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi, adaptiv metodika, maxsus pedagogika va psixologiya bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur. Bu esa pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish orgali imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga mos yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi [8].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'limga sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, bu jarayonda oila va maktabning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Oila – bolaning eng yaqin ijtimoiy muhitidir va u bolaga mehr, tushunish hamda qo'llab-quvvatlash orgali psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, ota-onalarning farzandining imkoniyatlariga nisbatan ijobji munosabati, unga bo'lgan e'tibori va individual yondashuvni bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, pedagog va psixologlar bilan muntazam hamkorlik qilish bolaning rivojlanishidagi ijobji o'zgarishlarga erishishda zaruriy shartlardan biridir [9].

Maktab esa bolaning bilim olishi, jamiyatga kirishishi va ijtimoiy faollik ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim muassasa hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratish, pedagoglar tomonidan individual yondashuvni yo'lga qo'yish, maxsus metod va texnologiyalarni qo'llash orqali imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy salohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga sharoit yaratiladi. Ayniqsa, sindoshlar va o'qituvchilar tomonidan ijobjiy munosabatning shakllanishi bolaning jamoadagi o'z o'rnnini topishiga xizmat qiladi.

Oila va maktab o'tasidagi uzviy hamkorlik, pedagogik maslahatlar almashinuvi, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi hamda bolaga nisbatan yagona yondashuv strategiyasining ishlab chiqilishi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan bolaning moslashuv jarayoni oila va maktabning birgalikdagi mas'uliyatli, izchil va tizimli yondashuviga bog'liq bo'lib, bu esa bola shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdullayev, J., & Botirov, S. (2021). Inclusive Education: Necessity, Prospective Trend. *Jurnal Pendidikan Non Formal*, 1(3).
2. Adashaliyeva, M. M. (2024). Important Issues of Implementation and Development of Inclusive Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 29, 35–39.
3. Glotova, Z., Mutavchi, E., & Dragileva, I. (2020). The International Experience of Inclusive Education: Resources for Introduction. In Proceedings of the International Scientific Conference "Far East Con" (ISCFEC 2020) (pp. 314–317).
4. International Disability Alliance (IDA). (2020). IDA Inclusive Education Global Report.
5. Kenjebaeva, K. (2024). Inclusive Education in Uzbekistan: Current Challenges and Potential Solutions. *Acta Education*, 1(1), 34–38.
6. Mamatova, A. B. (2023). Theoretical Foundations of Inclusive Education for Children with Disabilities. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(10).
7. Nutfiyeva, D. (2023). Inclusive Education: A Foundation for Global Educational Reform. Next Scientists Conferences.
8. Qurbonova, M. F. (2023). Inclusive Education and New Pedagogical Approaches Used in Higher Education System in Uzbekistan. *International Journal of Scientific Trends*, 2(6), 45–49.
9. Tavobova, O. F. (2022). The History of Inclusive Education Policy in the Countries of the World and Its Development. *Oriental Journal of Education*, 2(01), 29–34.
10. UNESCO. (2020). Inclusion and Education: All Means All. *Global Education Monitoring Report 2020*.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.